

Akademik litsey o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari va mexanizmi

Qobiljon Valiyev,
gobiljonvaliev@gmail.com

o'qituvchi., PhD
Namangan davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Akademik litseylarda og'zaki nutqni o'rgatish o'rta maktabda shakllangan ko'nikma va malakalar asosida rivojlantiriladi. Litseyda og'zaki nutq chet til ta'limining amaliy maqsadi maqomida emas, balki nutqiy muloqotni ta'minlovchi vosita sifatida o'rgatiladi. Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq kompetensiyasi, akademik litsey, interaktiv texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, nutq malakalari, mashqlar

Технологии и механизмы развития устной компетенции учащихся академических лицеев

Кобилжон Валиев,
gobiljonvaliev@gmail.com

PhD, преподаватель
Намаганского государственного института иностранных языков

Аннотация: В академических лицеях обучение устной речи основывается на навыках и умениях, сформированных в средней школе. На уровне лицея устная речь на английском языке рассматривается не как практическая цель обучения иностранному языку, а как средство обеспечения речевого общения. В данной статье анализируются современные технологии и методические подходы, направленные на развитие устной компетенции учащихся академических лицеев по английскому языку.

Ключевые слова: устная компетенция, академический лицей, интерактивные технологии, коммуникативный подход, речевые навыки, упражнения.

Technologies and mechanisms for developing academic lyceum students' speaking competence

Qobiljon Valiev,
gobiljonvaliev@gmail.com

PhD, Lecturer
Namangan State Institute of Foreign Languages,

Abstract: In academic lyceums, the teaching of speaking skills is developed based on the knowledge and abilities formed during secondary school. In this context, speaking is not considered merely a practical goal of foreign language education, but rather a means of ensuring effective verbal communication. This article analyzes modern technologies and methodological approaches that contribute to the development of speaking competence in English among academic lyceum students.

Keywords: speaking competence, academic lyceum, interactive technologies, communicative approach, speech skills, exercises.

Barcha ta'lim turlarida bo'lgani kabi akademik litsey o'quvchilari uchun ham og'zaki nutqni

rivojlantirishning eng samarali yo‘li tabiiyki mashg‘ulotlar jarayonida mashqlar bajarish hisoblanadi. Ya‘ni har qanday faoliyatni o‘rgatish paytida mashq markaziy o‘rinni egallaydi [4]. Nutq malakalarini o‘zlashtirish deganda, kichik hajmli sodda birliklardan (so‘z, so‘z birikmasi, gapdan) boshlanib, yirik miqyosdagi murakkab matngacha bo‘lgan nutq hodisalarini o‘z ichiga olgan mashq bajarish jarayoni tushuniladi. Bularning hammasi oqibat natijada mashqlar majmuyini tashkil etadi. Shu navbatda tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko‘nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o‘taydi. Odatda, ular o‘quv mashqlari nomi bilan yuritiladi.

Tayyorlov deganda, gapirishning leksik, grammatik, talaffuz ko‘nikmalariga daxldor mashqlar haqida so‘z boradi. Ularda til hodisalarining shakliy (formal), ma‘noviy (semantik), qo‘llanilish (funktional) qiyinchiliklarining oldini olishga, sodir bo‘ladigan xatolarni to‘g‘rilashga harakat qilinadi. Hozirgi kun zamonaviy ingliz tilisida tayyorlov mashqlari “Pre-speaking” atamasi bilan yuritiladi. Bu turdagi mashqlarni qo‘llash jarayonlariga o‘tishda, eng avvalo, auditoriyaning bilim darajasini inobatga olish eng muhim vazifa hisoblanadi[5].

Tayyorlov mashqlari:

1. Taqlid qilish (material o‘zgartirilmaydi yoki qisman o‘zgarish yuz beradi).
2. Mantiqiy operatsiyalar almashtirish, qayta taqsimlash va shaklini o‘zgartirib aytishlarni qo‘llash.
3. Jumlani taqlidan yoki mustaqil tuzish.
4. Jumla tuzish va jumalarni guruhlab aytish kabi bosqichlarga ajratiladi.

Quyida tayyorlov mashqlariga oid namunalar keltirilgan bo‘lib ushbu mashqlar litsey o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishga va darsning dastlabgi jarayonida diqqatini jalb qilishga xizmat qiladi.

Discuss the questions in pairs

1. Which professions require a lot of study? Why do not?
2. What subjects do you have to study to become....
 - a teacher?
 - a doctor?
 - a lawyer?
 - a businessperson?
3. Would you like to work in a medical profession? Why/ Why not?

Yuqorida aytilganidek, birinchi bosqichda dastavval tayyorlov mashqlari bajariladi. Mazkur mashqlarning vazifasi tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarining pertseptiv-sensor asosini rivojlantirish va og‘zaki nutq jarayonida yuzaga keluvchi lingvistik va psixologik qiyinchilik va xatolarni bartaraf etishga xizmat qiladi [1].

Mazkur bosqich o‘z ichiga 2 turdagi mashqlarni qamrab oladi:

1. Lisoniy qiyinchilik va xatolarni bartaraf etish.
2. Psixologik to‘siqlarni bartaraf etish.

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish mashqlarining roli, o‘quv jarayoniga tatbiq etish, tarjima mashqlarining turlari kabilarni zamondosh metodistlarimiz mufassal tadqiq etishgan [3]. Olimlarning fikrlariga tayangan xolda biz mashg‘ulotlarimiz jarayonida “Pre-speaking” mashqlaridan samarali foydalandik. Bunda o‘quvchilarning extiyojlari, lisoniy imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olindi.

1 Work with a partner and answer the questions:

1. What science subjects do academic lyceum students in your country study?
2. What kinds of things do they do in science classes? Describe a typical lesson.
3. Do students need to pass a science exam to finish the lyceum or go to university? Is it more important to pass the exam or get some experience with real science?
4. What do you like about science classes? What do you dislike?

Bu turdagi mashqlarda asosiy e‘tibor o‘quvchilar o‘rtasida chet tili muhitini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ulardagi og‘zaki nutq jarayonidagi xatolarga ko‘z yumish holatlari kuzatiladi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarni rivojlantirish uch bosqichda o‘tishi tadqiqotlarda ko‘rsatib

o‘tilgan. Bunda birinchi bosqich og‘zaki nutq materiali bilan tanishishdan boshlanib (presentation) bu bosqichda til materialiga oid leksik, grammatik, talaffuz va o‘qish texnikasiga oid mashqlari bo‘yicha tayyorlov mashqlari o‘tkaziladi. Ikkinchi bosqichda og‘zaki nutq materialini muloqot jarayonida mashq qilishdan (exercise) boshlanadi. Uchinchi bosqichda esa o‘rganilayotgan og‘zaki nutq materiali muloqot jarayonida qo‘laniladi (usage), malaka tarkibida o‘zlashtiriladi.

1-jadval

Og‘zaki nutq materialini o‘rgatish bosqichlari		
Og‘zaki nutq materialini o‘rgatish bosqichlari		
Og‘zaki nutq materiali bilan tanishish (presentation)	Og‘zaki nutq materialini muloqot jarayonida mashq qilish (exercise)	Og‘zaki nutq materialini qo‘llash (usage)

Misol tariqasida quyidagi mashqni keltirib o‘tishimiz mumkin.

While speaking

Read the text about Presidential Scholarship in Uzbekistan. Think about which criteria do you feel the most important for receiving the Presidential Scholarship? Rank them from 1 to 5 (1=most important, 5=least important). Discuss your reasons.

Wondering how to get a presidential scholarship for your study in Uzbekistan? Students can apply for university scholarships in Uzbekistan including funding for high schools, financial aid for college students, graduate school scholarships, postgraduate scholarships, and more, all available for citizens of the country.

Find the right scholarship in Uzbekistan, for a wide variety of academic degrees, including business and management scholarships, engineering scholarships, law school or medical school scholarships, as well as sports, arts, or music scholarships to help pay for your studies abroad.

Requirements:

- must be recommended as a suitable candidate by the dean of the faculty and by one of the faculty professors
- must have excellent grades and test scores
- must be engaged in scientific (creative) work;
- must have at least two published works (articles, books);
- must have language proficiency (B2-C1) in any foreign languages
- must include a good written application

Ushbu turdagi mashqlar yordamida biz o‘quvchilarning lingvistik, kognitiv va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga ularda individual, juftlikda va guruhlarda ishlash va muzokaralar o‘tkazish va ma‘lum bir vaziyatga tanqidiy munosabat birdirish kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga erishamiz.

Birinchi bosqich tayyorlov mashqlarida leksika, grammatika va talaffuz materiali va o‘qish texnikasiga oid mashqlarni bajarishga e‘tibor qaratilishi lozim [2].

Talaffuz birliklari bo‘yicha mashqlar:

1. Tovushni yolg‘iz, so‘ngra so‘zda va gapda aytish.
2. Tovush birikmalarini talaffuz qilish.
3. Farqlash maqsadida tovushlarni qaytarish (cho‘ziq va qisqa unlilar yuzasidan).
4. Muayyan tovush birikmalarini o‘z ichiga olgan so‘zlarni aytib, gaplar tuzish va h.k.

Leksik birliklar bo‘yicha mashqlar:

1. Predmetlar yoki ularning tasviri nomlarini inglizcha aytish.
2. Muallimga/diktorga taqlidan yangi so‘z yoki so‘z birikmasini takrorlash.
3. So‘zni tinglash va tovush tarkibini o‘rganish (so‘z gapda yoki yolg‘iz taqdim etiladi).
4. So‘z/so‘zlarni harfiy tahlil qilish.
5. Muayyan o‘qilish qoidasini namoyish qiluvchi so‘zlarni o‘qish.

6. Qoidadan mustasno soʻzlarni oʻqish.
7. Soʻz yasash elementlarini tahlil qilish orqali yangi soʻz maʼnosini ochish.
8. Soʻzni qoʻllab ogʻzaki gaplar tuzish.
9. Muallim aytgan yangi soʻzni soʻz birikmasida/gapda qoʻllash va h.k.

Grammatik birliklar boʻyicha mashqlar:

1. Yangi grammatikani boshqa tanish hodisalardan farqlash.
2. Tinglab/oʻqib idrok etilgan grammatik hodisaning nomini aytish.
3. Muallim hikoyasini tegishli grammatik hodisani ishlatib davom ettirish.
4. Oʻquvchi yoki muallim aytgan grammatik hodisani gapda qoʻllash.
5. Nutqiy vaziyatda grammatik hodisani qoʻllash.
6. Tegishli grammatik hodisani qoʻllab, savol-javob qilish va h.k.

Ikkinchi bosqich, axborot olish va tushunganlikni tekshirish mashqlarini oʻz ichiga oladi:

1. Matn mazmuni bilan tanishish.
2. Berilgan savollarga javob qidirish.
3. Muallim fikrini isbotlovchi dalillarni matndan topish.
4. Turli topshiriqlarni bajarish uchun matnni qayta oʻqish.
5. Muallim matndagi ayrim axborotlarni ataylab oʻzgartirib aytadi, oʻquvchilar matndagi toʻgʻri maʼlumotni topadilar.

Read the shared experiences of American fellow and discuss the questions in small groups.

Discuss about differences between Uzbek and American culture.

I was staying with a host family in Namangan for a few days. They were really nice people but I found a lot of things very strange. First, they followed me round the city and showed me a lot of things which I would have preferred to discover on my own. They really insisted me that I ate with them and offered me a lot of food which I could not eat – it was too much and too heavy! They became even more attentive when they learned I was a professor, as if it would have made any difference. Every day the father of the family would try to take me to some of their relatives or to invite them over to meet me.

Matn ustida ishlashning uchinchi bosqichida uning leksikasi va axboroti asosida gapirish, tinglab tushunish va yozuv malakalarini oʻstirish boʻyicha mashqlar bajarildi:

1. Yakka nutq yoki juftlikda gapirish mashq qilindi.
2. Berilgan OʻNV doirasida matndan foydalanib gapirish.
3. Matn xususiyatiga koʻra tushunganlikni tekshirish uchun matnni yozma yoki ayrim qismlarini ogʻzaki tarjima qilish.
4. Matn mazmunini navbatma-navbat aytish.
5. Matn mazmunini reja asosida gapirib berish va h.k.

2-jadval

Read the situations, think about the language you use and write your responses. Compare and discuss with your partner.

Situations	Formal/informal
When you are communicating with someone that you don't know very well	
Situations that are more relaxed and that involve people that you know well or know each other well	
Some business correspondence	
In everyday conversations	
Personal emails	
Professional academic situations	
Academic writing/ articles	

Presentations	
Public tenders	
Spontaneous speech	
Talking to peers	
Networking or socializing with clients	
Public speaking (speeches, lectures, etc)	
Job interviews	
Team meetings	

Ogʻzaki nutq mashqlarini bajarishda, gapirish va tinglab tushunish koʻnikmalarining asosiy qismi, nutq faoliyatining umumiy funktsional (ayniqsa mantiqiy fikrlash va anglash) mexanizmlarini rivojlantirish jarayonida takomillashishini koʻrish mumkin. Bunda mashqlarning yaxlit, oʻzaro mazmunan bogʻliq kontekst asosida tashkil etilishiga eʼtibor qaratish lozim.

Gapirish nutq faoliyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan mashqlar turiga quyidagi guruhlarini kiritish mumkin:

1. Imitatsion – taqlidiy mashqlar;
2. Mantiqiy operatsiyalar asosida (distributsiya, transformatsiya, substitutsiya, sinonimik va antonimik oʻrin almastirish) struktura/tizimlarni oʻzgartirish mashqlari.
3. Strukturalarni tizimlashtirish (konstruksiyalash) mashqlari.
4. Strukturalarni guruhlash va kombinatsiyalash mashqlari[6].

Masalan: Post speaking. Look at the list of your future job criteria. Rank them from 1 to 10 in order of importance to you (1=most important, 10=least important)

- to make a lot of money
- to feel challenged every day
- to be friends with colleagues
- to work for a well-known company
- to travel for work
- to speak more than one language
- to have job security
- to have a easy commute
- to manage other people
- to be creative

Shuni taʼkidlash kerakki, bu kabi mashqlar savollarga javob qaytarish (qisqa, toʻliq, mufassal javoblar berish), turli savollar berish (mavzu yoki nazoratlar doirasida), bayon etilgan fikrni qisman oʻzgartirish bilan gapirib berish (boshlanishi/oxirini oʻzgartirish, hikoyaga yangi ishtirokchini jalb etish, hikoya tuzilishini oʻzgartirib aytish), tasvirlash yoki hikoya tuzish (tayanch soʻz yordamida, rejaga qarab) da samarali deb topilgan.

Har bir turdagi mashqlar tizimi oʻz oʻrnida yana kichik guruhlariga boʻlinadi. Birinchi turdagi lisoniy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan mashq va vazifalar tinglab tushunish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarni engishga qaratiladi:

1. Fonetik qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan.
2. Leksik qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan.
3. Grammatik qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan.

Ikkinchi tur – psixologik omillarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan mashqlar ham oʻz ichida quyidagi qoʻshimcha guruhlariga ajratiladi:

1. Xotira mexanizmini rivojlantiruvchi mashqlar.
2. Taxmin qilish mexanizmini rivojlantiruvchi mashqlar.
3. Mantiqiy fikrlash mexanizmini rivojlantiruvchi mashqlar.

Mashgʻulotlarimiz va tajriba sinov paytida qoʻllagan mashqlarimizda barcha mexanizmlar inobatga olingan xolda taqdim etildi. Masalan:

1. Tell about the important historic place.
2. Answer the questions
 - Are there any other historic place? What is the place?
 - Where is it located?
 - Why do you think it is important?

3. Follow-up (explain):

What do you think of the historic place in the future?

Will the government increase or decrease the safety guard?

What are the changes to the local people and economy? What is the impact on the historical place by tourists?

Ko'rinib turibdiki dastlabki savol orqali o'quvchilarda o'zlari uchun notanish bo'lmagan mavzu asosida axborot berish talab etiladi va bu bilan keyingi bosqichga o'tish uchun tayyorlov ko'nikmasi shakllantiriladi. Ikkinchi mashqda esa o'quvchilarga mavzu bo'yicha savollar bilan murojat qilinadi. So'nggi bosqichda o'quvchilarga birinchi va ikkinchi topshiriq orqali tayyor holga kelib qolgan mavzu yuzasidan uzun muhokamalar o'tkaziladi.

Gapirish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolarni nazorat qilish (muallim tomonidan) va o'z-o'zini tekshirishning nutq malakalarini egallashda ahamiyati katta. O'z-o'zini tekshirishga qaratilgan (self-assessment rubrics) rubrikalar o'quvchilarning ingliz tilidagi so'zlashuv ko'nikmalarini baholash va fikr-mulohazalarning aniq mezonlar orqali oshirish uchun ishlatiladi[7]. Rubrikalar nutq qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni obyektiv baholashga yordam beradi. Zamonaviy ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri bu, albatta, o'quvchilarni olgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashni amalga oshirishni ta'minlash lozim. Shuningdek, o'qituvchilarni o'quvchilar nutqiy mashqlarni bajarish chog'ida xatoni to'g'rilab turish ma'qul ish emasligi, bu ish fikr bayon etib bo'lingandan so'ng bajarilishi lozim. Agarda yo'l qo'yilgan xatolar qo'pol darajada bo'lmasa, o'qituvchining nutqi orqali o'quvchilar o'zlari idrok qilib olishlari mumkin bo'ladi.

Akademik litsey darsliklarida juft nutq va yakka nutq mashqlari sistemasi ishlab chiqilgan. Mashqlarning berilish tartibi va miqdori muayyan bosqichdagi o'quvchilarning chet tilda hosil qilingan ko'nikma va malakalari saviyasiga qarab farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy maqolada akademik litsey o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda pre-speaking (gapirishga tayyorgarlik) va speaking (gapirish) mashqlari samarali qo'llanilishining ahamiyati yoritildi. O'rganilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, brainstorming (fikr almashish), rolli o'yinlar, munozaralar, lug'at boyitish va grammatikaga asoslangan topshiriqlar kabi pre-speaking mashqlari o'quvchilarning og'zaki nutqqa tayyorlanishida muhim bosqich hisoblanadi[8]. Bunday mashg'ulotlar nafaqat o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, balki ularning til kompetensiyasini va erkin so'zlasha olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, juftlikda va guruhlarda ishlash, interaktiv o'yinlar, suhbatlar va loyihaviy topshiriqlar kabi speaking mashqlari o'quvchilarga tilni real vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bunday faoliyatlar orqali o'quvchilar erkin, mazmunli va tabiiy tarzda muloqot qilishga o'rganadilar. Umuman olganda, maqolada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pre-speaking va speaking mashqlarini puxta rejalashtirib dars jarayoniga kiritish og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarga turli xil interaktiv va o'quvchiga yo'naltirilgan mashg'ulotlardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu esa o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish va til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мальдзигова, З. А. (2014). Психолингвистические основы обучения иностранному языку. Наука. Образование. Личность Учредители: Центр научного знания "Логос", 62–66.

2. Мисиров, С. А. (2007). Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари [Lingvodidactic foundations of teaching English in vocational colleges]. Tashkent.

3. Эркакев, Э. Т. (2008). Бўлажак чет тили муаллими таълимида қўлланадиган таржима машқларининг лингводидактик таснифи [Lingvodidactic classification of translation exercises used in the training of future foreign language teachers]. Tashkent.

4. Valiev, Q. (2023). Technology for developing speaking competence of academic lyceum students in ELT teaching. *European Journal of Education and Applied Psychology*, (4), 20-24.

5. Valiev, Q. (2023). Developing oral speech competence of academic lyceum students in English classes as an actual pedagogical issue. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 245-252.

6. Valiev, Q. (2022). Methods of developing oral speech competence in English classes. *Sovremennaya Nauka: Aktual'nyye Voprosy, Dostizheniya i Innovatsii*, 165-167.